

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 31 289 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1-yanvar holatiga, birlik	2026-yil 1- yanvar holatiga, birlik
Farg'ona viloyati	28 076	31 289
Oltiariq tumani	1 678	1 917
Qo'shtepa tumani	1 009	1 064
Bag'dod tumani	1 012	1 096
Buvayda tumani	1 096	1 183
Beshariq tumani	927	1 029
Quva tumani	1 201	1 357
Uchko'prik tumani	1 463	1 632
Rishton tumani	1 176	1 278
So'x tumani	816	937
Toshloq tumani	1 167	1 248
O'zbekiston tumani	1 215	1 373
Farg'ona tumani	1 223	1 414
Dang'ara tumani	1 197	1 282
Furqat tumani	696	743
Yozyovon tumani	987	1 110
Farg'ona shahar	4 941	5 671
Qo'qon shahar	2 958	3 274
Quvasoy shahar	1 038	1 262
Marg'ilon shahar	2 276	2 419

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




2025- yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 12 688 ta, sanoatda 5 988 ta, boshqa xizmatlarda 3 644 ta hamda qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 381 ta tashkil etilgan.

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-dekabrda 6 417 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 2 712 ta, sanoatda 971 ta, boshqa xizmatlarda 709 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 586 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni





Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar- dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Farg'ona viloyati	5 949	6 417
Oltiariq tumani	347	313
Qo'shtepa tumani	283	217
Bag'dod tumani	235	233
Buvayda tumani	248	283
Beshariq tumani	257	271
Quva tumani	274	364
Uchko'prik tumani	273	297
Rishton tumani	308	251
So'x tumani	146	117
Toshloq tumani	247	226
O'zbekiston tumani	249	290
Farg'ona tumani	251	301
Dang'ara tumani	184	196
Furqat tumani	177	163
Yozyovon tumani	324	459
Farg'ona shahar	949	1 185
Qo'qon shahar	508	606
Quvasoy shahar	273	241
Marg'ilon shahar	416	404

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 27 648,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 55,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 122,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Buvayda tumani (100,0%), So'x tumani (100,0%), Marg'ilon shahar (97,0 %), Yozyovon tumani (96,8%) shahar va tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 15 926,9 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 83,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 117,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi O'zbekiston tumani (97,0%), Quvasoy shahar (96,6%) va Toshloq tumani (96,5%) shahar va tumanlarga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 24 267,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 74,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 149,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Beshariq tumani (96,8 %), Uchko'prik tumani (96,6 %), Dang'ara tumani (95,4%) va Quvasoy shahriga (95,3%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 45 377,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 91,2% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Marg'ilon shaharga (98,7 %), Rishton tumani (97,3%) va O'zbekiston tumani (93,8 %)ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 36 338,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 86,1% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabrga oylariga nisbatan 104,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi So'x tumani (99,5%), Farg'ona tumani (99,3 %), Toshloq tumani (98,7 %) va Yozyovon tumani (98,7 %) lariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 54 265,8 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 75,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahar (79,4 %), Qo'qon shahar (75,6 %), Oltiariq tuman (74,6%), Yozyovon tumani (72,6%) va Rishton tumani (67,5 %)ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 599,1 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 65,0 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabr hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buvayda tumani – 100,0 %, So'x tumani– 100,0 %, Yozyovon tumani–100,0 %, Marg'ilon shahar – 100,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- dekabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 1 365,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 86,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Buvayda tumani – 100,0 %, Quva tumani – 100,0 %, Rishton tumani – 100,0 %, So'x tumani–100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



III. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,0 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,3% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,5% ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 44,1% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar- dekabrda esa 42,1 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 2 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar- dekabrda 49,5 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar- dekabrda 55,0 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrda 6,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar- dekabrda kelib, bu ko'rsatkich 2,9 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)



Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi

2021- yilning yanvar- dekabrda 47,7 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrda 48,7 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar- dekabrda 48,7% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar- dekabrda 49,6 %. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar- dekabrda 3,6% ni tashkil

etgan
2025- yilning yanvar-dekabrga kelib, bu ko'rsatkich 1,7 % ni tashkil qildi.

bo'lsa,




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida –18,2 % ni, xizmatlar sohasida – 12,5% ni va sanoatda – 7,8% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida – 21,9 % ni, xizmatlar sohasida – 16,9 % ni va sanoatda – 10,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – 1,3 % ni, sanoat sohasida – 0,6 % ni va xizmat sohasida – 0,5 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'lim boshlig'i

Ijrochi:
A. Komiljonov
73 241-98-48 (4030)



Maznil:
150100, Farg'ona sh.,
Oq yo'l ko'chasi, 104A